



BUGUNGI ADABIY JARAYONDA DRAMATURGIYA

Hodiyeva Habiba Nurmamat qizi

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti O‘ZMPU
Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 401-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi adabiy jarayonda dramaturgiya janrining o‘rni, uning rivojlanish tendensiyalari va zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek va jahon dramaturgiyasi namoyandalari asarlari asosida dramatik tafakkurning o‘zgarishlari ochib beriladi. Dramaturgiyaning ijtimoiy, estetik va badiiy funksiyalari ham keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Maqtanchoqlik, toshlar, toshbag‘ir, inson, rostgo‘ylik, halollik, qushlar, paxta, xiyonat, xalq

Аннотация: В данной статье анализируется роль драматического жанра в современном литературном процессе, тенденции его развития и современные интерпретации. Также на основе произведений узбекских и мировых драматургов выявляются изменения в драматургическом мышлении. Широко рассматриваются социальные, эстетические и художественные функции драматургии.

Ключевые слова: Гордость, камни, камень, человек, правдивость, честность, птицы, хлопок, предательство, люди

Abstract: This article analyzes the role of the drama genre in today's literary process, its development trends and modern interpretations. Also, changes in dramatic thinking are revealed based on the works of Uzbek and world dramaturgs. The social, aesthetic and artistic functions of dramaturgy are also widely covered.

Keywords: Pride, stones, stone, man, truthfulness, honesty, birds, cotton, betrayal, people

KIRISH

Zamonaviy adabiy jarayonda dramaturgiya alohida o‘rin tutadi, chunki u jamiyatdagi ijtimoiy, ma‘naviy va psixologik muammolarni eng tez va ta‘sirchan aks ettira oladigan janrlardan biridir. Dramaturgiya sahna bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani sababli, unda hayotiy ziddiyatlar jonli harakat va dialog orqali ochib beriladi. Bugungi kunda dramaturgiya ikki yo‘nalishda rivojlanmoqda: birinchisi - an‘anaviy realizm asosidagi sahna asarlari, ikkinchisi - postmodernizm, absurd va eksperimental teatr shakllari. Bu esa dramaturgiyaga yangi mazmun va yangi ifoda vositalarini olib kirmoqda.

ASOSIY QISM

Dramaturgiyaning nazariy asoslari qadimgi yunon mutafakkiri Aristotel tomonidan yaratilgan. Uning “Poetika” asarida tragediya strukturasi, konflikt va katarsis tushunchalari asoslab berilgan. Masalan, Aristotel tragediyani “qo‘rquv va achinish orqali ruhiy poklanishga olib keluvchi san‘at” deb ta‘riflaydi. Bu tamoyil

keyinchalik Shekspir tragediyalarida mukammal rivojlangan. “Hamlet” asarida bosh qahramonning “bo‘lish yoki bo‘lmaslik” dilemmalari orqali ichki konflikt chuqur ochib beriladi. Zamonaviy dramaturgiyada esa bu klassik model ko‘pincha buziladi yoki yangicha talqin qilinadi. Masalan, Bertolt Brext o‘zining epik teatr nazariyasida tomoshabinni voqeaga berilib ketmaslikka, balki uni tahlil qilishga undaydi. Uning “Galiley hayoti” dramasida ilmiy haqiqat va diniy dogma o‘rtasidagi ziddiyat ochib beriladi.

Bugungi bolalar adabiyotida ham nasr ham dramaturgiya sohasida faol bo‘lgan yozuvchilarimiz bor. Shulardan biri Kavsar Turdiyevadir. Uning “Toshkesaklar mamlakatida” ertagi bir necha bor sahnalashtirilgan. Ushbu ertak yosh kitobxonlarda axloqiy tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ertakning markazida 4-sinf o‘quvchisi Tolib turadi. Uning xarakteri bolalarga xos bo‘lgan ayrim salbiy illatlarning jamlanmasi sifatida tasvirlangan. Tolib “rostgo‘ylik” ni noto‘g‘ri tushunadi. Odamlarning jismoniy kamchiliklarini (cho‘loqlik, karlar, pakana boy) yuziga aytishni rostgo‘ylik deb biladi. Aslida bu to‘g‘ri holat emas. Uning “toshbag‘irligi” faqat so‘zda emas, ishda ham ko‘rinadi. Masalan, paxta etaklariga kesak solib aldaydi, qushchaga tosh otadi. Ertakni o‘qish davomida tushunasizki, ertak bolalarga “ochiq-oydin gapirish har doim ham rostgo‘ylik emas” degan muhim darsni beradi. Bolalar adabiyotida bu juda muhim mavzu sanaladi. Ushbu ertakda birovning nuqsoni ustidan kulish ma’naviyatsizlik ekani badiiy bo‘yoqlarda ochib berilgan. Farzandlarimizga hamisha nuqsoni bor insonlarga jamoat joylarida joy berishimiz, yordam berishimizni o‘rgatishimiz kerak.

Ertakdagi paxta voqeasining ham tarbiyaviy ahamiyati katta. Chunki paxta ichiga kesak solish – nafaqat aldov, balki xalqning mehnatiga xiyonat ham sanalishini ularga anglatishimiz zarur.

Kavsar Turdiyeva bolalar tili va ruhiyatini yaxshi bilgan holda sodda, ravon va ritmik vaznlardan foydalangan. Masalan, Tolibning tosh bilan suhbat, “Tosh yomg‘iri”, “Jonlangan toshcha”, “Munajjim qo‘shig‘i” kabi tasvirlar bolalarning tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ertakning asosiy xulosasi - yomonlikning jazosiz qolmasligi va har bir inson o‘z qalbiga mos dunyoga loyiq bo‘lishidir. Tolibning hayvonlarga ozor berishi va odamlarni masxara qilishi uni oxiri “shafqatsizlar” dunyosiga yetaklaydi. Kavsar Turdiyevaning bu ertagi bolalarni har doim yaxshilikka intilishga va yomon bola bo‘lishdan qochishga undaydi. Maqtanchoqlik va o‘zboshimchalik har doim oxirida insonni halokatga duchor qiladi. Bu ertak bolalarni o‘zganing ko‘ngliga ozor bermaslikka, halol mehnat qilishga, har bir so‘z va ishning mas’uliyati borligini tushunishga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, dramaturgiya bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yangi shakl va talqinlar orqali yanada boyib borayotgan dinamik adabiy janrdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiyeva, K. SAYLANMA (She‘rlar, ertaklar, dostonlar). Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2012.

2. Turdiyeva, K. Toshkesaklar mamlakatida (Ertak-doston). Toshkent: “Yulduzcha”, 1989.
3. Jabborov, N. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
4. Jo‘rayev, M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent: “Fan”, 2008.
5. Qurbonova, M. Hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotida badiiy mahorat masalalari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2019.
6. Baratova, M. Bolalar adabiyotida zamonaviy qahramon konsepsiyasi (Kavsar Turdiyeva ijodi misolida).”O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2021-yil, 3-son.